

ABOUT GREAT IMAGES

Lapasov Dilshod Abdusaid oglu

Is a teacher at the Syrdarya Regional Law College

Annotation. This article provides a comparative analysis of the interpretations of the great figures of the First President of the Republic of Uzbekistan I. Karimov. On the basis of the works of the President, the composition of modern great figures was proposed.

Keywords: Presidential works, great figures, encyclopedic scholars, science, science, religion, literature.

BUYUK SIYMOLAR HAQIDA

Лапасов Дилшод Абдусайд ўғли Сирдарё вилояти юридик техникуми ўқитувчиси

Annotasiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov asrlaridagi buyuk siymolar haqidagi talqinlari qiyosiy tahlil qilingan. Prezident asarlari asosida zamonaviy buyuk siymolar tarkibi tavsifa etilgan.

Kalit so‘zlar: Prezident asarlari, buyuk siymolar, qomusiy olimlar, fan, ilm, din, adabiyot.

Vatanimizni jannatmakon o‘lka deb atashadi. Shu o‘lkani asl farzandlari esa yurt shonu-shavkatini olamga yoygan. Turkiston avliyolar, allomalar va buyuklar yurti. Professor M.Imomnazarovning qayd etishicha, Turkistonda ikki mingdan ortiq allomalar yashab o‘tgan. Islomshunoslarning yozishicha Turkistonda mingdan ortiq valiyalar o‘tgan. Birgina Alisher Navoiyning “Nasoyimul-muhabbat” asarida yetti yuz yetmishta valiyalar haqida ma’lumot berilgan.

Birinchi Prezident Islom Karimov ta’kidlab yozganlaridek: “Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak bilim, adolatparvarlik, ma’rifatsevarlik kabi ezgu fazilatlarini Sharq falsafasi va islom dini ta’limoti bilan uzviy ravishda rivojlandi. Va o‘z navbatida bu falsafiy-axloqiy ta’limotlar ham xalqimiz dahosidan bahra olib boyib bordi.

Bizning kelajagi buyuk davlatimiz ana shu falsafaga uyg‘un holda, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahovaddin Naqshband, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari mutafakkir ajdodlarimizning dono fikrlariga uyg‘un holda shakllanishi lozim”.

Insoniyat tarixida bir qator ulug‘ siymolar yashab o‘tganki, ular xalqni, millatni faxri va iftixoridir. Yulduzlar tunni yoritganidek, har bir xalqning daholari o‘sha xalqning ilmiy merosini jahonga ko‘z-ko‘z qiladi. Vatanimizda ana shunday siymolar juda ko‘p va son-sanoqsizdir. Yurtimizda yashab o‘tgan buyuk siymolarimiz haqidagi ilmiy va daliliy ma’lumotlarni Birinchi Prezident Islom Karimov asarlaridan olishimiz mumkin.

Yurtboshimizning asarlarida Markaziy Osiyo buyuk siymolariga bergan ta’rif va talqinlarini shartli ravishda to‘rt jihatdan o‘rganishimiz mumkin:

Birinchi jihat – Birinchi Prezident Islom Karimovning umumiy holda ma’lum bir guruh siymolarga bergan baholari:

“Buyuk davlat poydevorini qurish, dunyoda o‘zimizga munosib o‘rinni egallashda Al-Beruniy, Ibn Sino, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Xoja Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi bobolarimizning bebaho merosi hamisha boshimizni baland, qaddimizni tik qiladi, xalqimizning kuchiga-kuch, g‘ayratiga-g‘ayrat, ishonchiga-ishonch qo‘shadi” .

“Kishilik taraqqiyotiga o‘zining o‘chmas ulushini qo‘shib, mamlakatimiz shuhratini olamga taratib, tarix sahifalariga abadul-abad muhrlangan Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy singari ulug‘ siymolar yetishtirgan millat har qancha g‘ururlansa arziydi” .

Ikkinchi jihat – Birinchi Prezident Islom Karimovning ijtimoiy sohaga oid asarlari: “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”, “Yuksak bilim – yengilmas kuch”, “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” va boshqa kitoblarida keltirilgan buyuk siymolarimizning umumiy nomlari jumladan, “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida yurtimizda yashab o‘tgan 25 nafar, “Yuksak bilim-yengilmas kuch” asarida nomlari keltirib o‘tilgan buyuk siymolardan 30 nafar va “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobida 17 nafar buyuklarimizning nomlari zikr etiladi. Jadvalda ilova qilinmoqda.

Uchinchi jihat – Birinchi Prezident Islom Karimovning alohida olingan buyuk siymolarga bergan ta‘riflari.

Al-Xorazmiy haqida. “Bugun bolalarimiz maktablarda va oliy o‘quv yurtlarida o‘rganadigan algebra, algoritm kabi kashfiyotlarga asos solgan Muhammad Muso al-Xorazmiy bu go‘zal voaha nomini dunyoga mashhur etgan”.

Farg‘oniy haqida. “Ahmad al-Farg‘oniy kishilik tarixidagi ilk uyg‘onish davrining eng zabardast va yorqin namoyandalaridan biri, o‘z zamonasi fundamental fani asoschilaridan edi”.

Buxoriy haqida. “Imom al-Buxoriy hazratlari nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun musulmon olamining faxr-iftixoridir. Ul tabarruk zotning hayoti tom ma‘nodagi ilmiy va insoniy jasorat, bukilmash iroda, so‘nmas e‘tiqod timsolidir”.

Forobiy haqida. “... buyuk faylasuf bobomiz Forobiy singari mutafakkirlarni bergan bu muqaddas zamin xalqlarining yaratuvchilik dahosi hamisha uyg‘oqdir”.

Beruniy haqida. “Atlantika ummoni ortida Amerika qit‘asi borligini Xristofor Kolumbdan 500 yil oldin bashorat etib, hattoki uning xaritasini chizib qoldirgan buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Beruniy mana shu muqaddas zaminda tug‘ilgan”.

Ibn Sino haqida. “Abu Ali ibn Sino ... kabi buyuk zotlar yetishib chiqqan, tahsil olgan bu makon bundan buyon ham ilmu fan ma‘rifat va ijod beshigi bo‘lib qolaveradi”.

Naqshband haqida. “Hazrat Bahouddin Naqshband o‘g‘itlarini eslaylik. U har bir insonni doimo Xudoni diliga jo qilgan holda uni doim o‘ziga madadkor deb bilib, kasb o‘rganishga, o‘z ishinig ustasi bo‘lishga, qisqasi, mehnat qilishga chaqirgan”.

Amir Temur haqida. “Amir Temur – xalqimiz dahosining timsoli, ma‘naviy qudratimiz ramzidir.

Amir Temur – faxrimiz, g‘ururimiz”.

Mirzo Ulug‘bek haqida. “Ulug‘bekdek munosib farzandlari bo‘lgan millat har qaysi zamonda va har qanday sharoitda ham yangidan-yangi g‘oyalarni yaratishga va rivojlantirishga qodir halqdir”.

Xoja Ubaydulloh Ahror haqida. ““Shayxlar shayxi” deb nom olgan bu ulug‘ zotning gapini biror hukmdor, hokim, shahzoda ikki qilmagan. Nega deganda, xalq uni boshiga ko‘targan. Biz ham bunday aziz ajdodimizni boshimizga ko‘tarishga tayyormiz”.

Alisher Navoiy haqida. “Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs... o‘lmas so‘z san‘atkoridir.

Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir”.

“Biz shoir deganda, avallo Alisher Navoiydek benazir zotlarni, ... o‘z xalqi uchun nafaqat noyob iste‘dodi, ayni paytda butun hayotini bag‘ishlagan buyuk va mo‘tabar insonlarni tasavvur etamiz”.

Muhammad Bobur haqida. “Bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan har qancha faxrlansak arziydi.

O‘zbek xalqini dovrug‘ini dunyoga taratgan ulug‘ ajdodlarimizdan biri o‘laroq, ul zot bizni tariximizni qadrlashga, kelajakka buyuk ishonch bilan qarashga o‘rgatadi”.

To‘rtinchi jihat – Birinchi Prezident Islom Karimov asarlarida keltirgan buyuk siymolarimizning klassifikatsiyasi:

“Bilimlar xazinasini ochgan buyuk ajdodlarimizning nomlari butun dunyoda mashhur. Bular buyuk matematik va astronomlar al-Xorazmiy, Farg‘oniy, Javhariy, Marvaziy, Ulug‘bek; faylasuf va ilohiyotchi-huquqshunoslar Forobiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Marg‘inoniy, Nasafiy; qomusiy olimlar Beruniy, Ibn Sino; tilshunos-shoirlar Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Zamaxshariy, Alisher Navoiy; tarixchilar Bobur Mirzo, Abulg‘ozi Bahodirxon, Ogahiy va boshqa ko‘pgina ulug‘ zotlardir” -deya ta‘kidlaydi.

Birinchi Prezident Islom Karimov ta'kidlab yozganlaridek: "Bu murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina bilim olami yangi ma'no-mazmun bilan boyib boradi. Boshqacha aytganda, har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot-bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, bilimning shakllanishiga o'ziga xos ta'sir o'tkazadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, zaminimizda yashab o'tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g'urur bilan ta'kidlash lozim".

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Eng asosiy mezon-hayot haqiqatini aks ettirish" risolalarida buyuk siymolarimiz to'g'risida: "Biz mustaqillikka erishganimizdan so'ng Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband singari aziz-avliyolarimiz, Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug'bek singari allomalarimiz, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk arboblarmiz, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlarimizning nomlarini, asarlarini tom ma'noda qaytadan kashf etdik" -deb yozadi.

Yuqoridagi Birinchi Prezident Islom Karimovning buyuk siymolar haqidagi klassifikasiyasiga asosan, bizningcha, har bir hayot jabhasining o'z buyuk siymolari, yulduzlari borki, ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

-Ilm-fan yo'nalishi: - al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, al-Forobiy, al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino...;

-Din yo'nalishi: - Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Az-Zamaxshariy, Ho'ja Ahror Valiy...;

-Tasavvuf yo'nalishi: - Ahmad Yassaviy, Abdulholiq G'ijduvoni, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband...;

-Adabiyot yo'nalishi: - Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Navoiy...;

-Davlat boshqaruvi yo'nalishi: - Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur...

Biz Birinchi Prezident Islom Karimov asarlarida qayd etilgan, eng buyuk siymolarnigina ajratib oldik xolos. Aslida esa ularning son-sonog'i bundan bir-necha marta ko'p. Ularning nurli siymosi, hayot yo'li va ular qoldirgan boy ma'naviy meros, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayot tarzi, shaxsiy namunalari bugungi kun mustaqillik farzandlari, kelajak avlod kamolaoti uchun yo'lchi yulduz, mayoq vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T. 2. –T.: O'zbekiston, 1996. 321 bet.
2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.T. 7. –T.: O'zbekiston, 1996. 321 bet.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. 47-48 betlar.
4. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. –T.: O'zbekiston, 2009. 6-7 betlar.